O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat agrar universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori,
professor _____ S.G. Boboyev
Ro‘yxatga olindi: № BD-60410100-1.10
2025-yil “28” avgust

O‘ZBEK TILI: O‘ZBEK TILINI SOHADA QO‘LLANILISHI

FANNING O ‘QUV DASTURI

(Rus guruhlari uchun)

Bilim sohasi:	800000 –	Qishloq, o‘rmon, suv xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	820000 –	O‘rmon xo‘jaligi
Ta’lim yo‘nalishi:	60820100 –	O‘rmon va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi O‘TO‘SQB 1104	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Hafta dars soatlari 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	O‘ZBEK TILI: O‘ZBEK TILINI SOHADA QO‘LLANILISHI	48	72	120

2.

I. Fanning mazmuni

O‘zbek tili: o‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi fanida rus guruhlari uchun o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari, og‘zaki va yozma shakli hamda qishloq xo‘jaligi sohasiga oid atamalar haqida ma’lumot berish nazarda tutiladi.

Fanning asosiy maqsadi – talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirish, o‘zbek tilini grammatik va imloviy jihatdan o‘rganish, uning uslubiy jihatdan rang-barangligini farqlash, turli matnlar tuzish va mutaxassislik bo‘yicha maqola va referatlar yozish ko‘nikmasini hosil qilish, rusiyzabon talabalarning o‘zbek tilida erkin muloqot qilishi, fonetik va morfologik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishi, kelajakda korxona va muassasalarda davlat tilida hujjatchilikni olib borish. O‘zbek tilidagi agrar sohaga oid atama va terminlarni izohini ishlab chiqish, qishloq xo‘jaligi sohasiga oid atama so‘zlarning kelib chiqishini o‘rgatish, chetdan kirgan atama hamda soha so‘zlarining muqobil variantlarini o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligining har bir yo‘nalishida qo‘llaniladigan atamalarni matnlar asosida o‘rgatish va lug‘atini tuzish, ilmiy maqolalarda sohaga oid so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, ilmiy uslubning soha bo‘yicha atamalarini mukammal o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqda ularni to‘g‘ri qo‘llash.

Fanning vazifasi – bo‘lajak mutaxassislarning yozma savodxonligini rivojlantirish, ikkinchidan, ularning og‘zaki nutqini adabiy o‘zbek tili me’yorlari asosida sifat jihatidan yaxshilash. Bo‘lajak mutaxassislarga o‘zbek tilida o‘z sohasiga oid atamalar to‘g‘risida batafsil ma’lumot berish, og‘zaki va yozma nutq boyligini oshirish. Soha atamalari ishtirokida maqolalar va esselar yozishni o‘rgatish. guruh talabalariga o‘zbek tilida erkin muloqot qilish uchun nutq madaniyatini egallash usul va yo‘llari o‘rgatish, adabiy til me’yorlarini va imlo qoidalarini misollar orqali tushuntirish, fonetik va morfologik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, kelajakda korxona va muassasalarda davlat tilida ish yuritishni o‘rganish, matnlar asosida talabalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lotin alifbosini kirill alifbosi bilan solishtirib o‘rgatish, o‘z fikrlarini, qarashlarini o‘zbek tilida bayon qilib berish ko‘nikmasini hosil qilish, o‘zbek tiliga, uning tarixi, madaniyati, qadriyatlariga mehr tuyg‘usini kuchaytirish, rus guruh talabalarida davlat tiliga hurmat-ehtirom bilan qarashni yanada shakllantirish.

II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan bo'yicha ma'ruza vashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

II.I. Fan tarkibiga amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular kiradi.

I MODUL (O'zbek tili)

1-mavzu. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi. O'zbekiston - mening Vatanim. Mavzuga oid matnni tez va ravon o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash. Vatan haqidagi she'rlardan yod olish. Matndan tayanch so'z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Vatan haqida she'r yodlash.

2-mavzu. Leksikologiya va leksik qatlam. O'zbek tili – Davlat tili. Tilning leksik qatlamlari tub turkiy so'zlar, umumturk so'zlar hamda o'zbek so'zlariga bo'lib o'rganiladi. Mavzuga oid matnni o'qib tahlil qilish.Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish."Men o'zbek tilini o'rganaman" mavzusida dialog tuzish.

3-mavzu. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Odobning boshi – til. Til madaniyati, til odobi paydo bo'lishi jihatidan qadimga borib taqalishi. Shakldosh so'zlar. Ma'nodosh so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Paronim so'zlar. "Odobning boshi – til" matnini o'zlashtirish. M.Qoshg'ariyning til haqidagi qarashlari. M.Qo'shg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari orqali tushuntiriladi. Mavzu bo'yicha savol-javob o'tqaziladi.

4-mavzu. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Adiblar xiyoboni. Ulug' ajdodlarimizga ehtirom. So'zlarning tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takror so'zlar shaklida misollar orqali mavzu tushintiriladi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma'nosini izohlash. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash. Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash.

5-mavzu. Mustaqil so'z turkumlari. Ot - mustaqil so'z turkumi. Sifat mustaqil so'z turkumi. T.Qaipbergenovning hayoti va ijodini o'rganish. Mavzuni ot bilan ifodalash haqida umumiy tushuncha bering. Ot va uning grammatik kategoriyalarini, xususan, jonli-jonsiz va jins kategoriyalarini belgilang. O'zbek tilini bilish uchun dastlabki qadam sifatida talabalar tilining turli xususiyatlarini o'rganadilar, ularni dunyoning boshqa tillari xususiyatlari bilan taqqoslaydilar. Tilni o'rganish orqali ular o'zbek tili madaniyatining xususiyatlarini ham o'rganadilar.Adibning "Boqiy dunyodagi bobomga xatlar" essesini muhokama qilish.

6-mavzu. Son – mustaqil so'z turkumi. Olmosh – mustaqil so'z turkumi. Inson va salomatlik. avzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va

iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha baxs-munzarada ishtirok etish. "Avitsenna" matnini o'zbek tiliga tarjima qilish. Abu Ali ibn Sino haqida ma'lumotlar. Manzarali o'simliklar haqidagi matn. "Salomatligimiz o'z qo'limizda" mavzusida esse yozish. Jazirama issiqdan oson o'tishga yordam beradigan oziq-ovqat mahsulotlari. Salomatlik haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar yozish.

7-mavzu. Fe'l – mustaqil so'z turkumi. Ravish- mustaqil so'z turkumi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni reja asosida so'zlab berish. "Shoirning hayoti va ijodi" mavzusida matn tuzish. Alisher Navoiyning "Mahbub ul - qulub" asaridagi didaktik mavzularning yoritilishi haqida ma'lumot berish. Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari va saboqlari. «Tabiatni asraymiz» shiori ostida birlashaylik» mavzusida rasmlar ko'rgazmasi tashkil qilish.

8-mavzu. Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchi va uning turlari. Bog'lovchi va uning turlari. Yuklama va uning turlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirb so'zlash. Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzish.

9-mavzu. Gap bo'laklari. Sodda gap va uning turlari. Gapning bosh bo 'laklari. Agrar sohadagi islohotlar. Sodda gap tarkibiga ko'ra: og'zaki va nominal gaplar, aniq-shaxs, noaniq-shaxs, umumlashgan-shaxs va shaxssiz gaplar, to'liq va to'liqsiz gaplar haqida umumiy tushuncha berish. Dunyoning TOP-300 universitetlari dasturiga muvofiq ushbu mavzu sodda to'liq va to'liqsiz gaplar tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga, savol-javob dialoglarini qurish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy, kompetensiyalar ro'yxatini tuzish va uni misollar bilan izohlab berish. Soha terminlari ishtirokida kichik matn tuzish.

10-mavzu. Ikkinchi darajaki bo'laklari va ularning qismlari. Internetning hayotimizda tutgan o'rni. Tilshunoslikda gapning tarkibiy qismlarini, sodda gapni, gapning bosh bo'laklarini, grammatik asosini, ikkinchi darajali bo'laklarini qiyoslash va qiyoslab o'rganuvchi bo'limi sifatida sintaksis haqida umumiy tushuncha beriladi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish va tavsiya qilish. Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

11-mavzu. Hujjatchilik tili va tarixi. Hujjat turlari va xususiyatlari. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari. Hujjat – ish yuritishning asosi. Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Hujjatchilik tili va tarixi. Hujjat turlari va xususiyatlari. Hujjatlardagi zaruriy

	1.http://old.natlib.uz. 2 https://lex.uz/docs/. 3. https://yuz.uz/news/. 4. https://gramota.ru. 5.https://obrazovaka.ru
7.	**O'quv dasturi TDAU Kengashining 2025-yil "28" 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** **S.Sh.Xalmirzayeva** – Toshkent davlat agrar universiteti,"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, professor. **M. Nurutdinova** – Toshkent davlat agrar universiteti,"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** **G. Keldiyorova** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. **N. Alavuddinova** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

	talqini hamda ularning boyib borish usullari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** • Talabalar o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til me'yorlari, imlo qoidalari, adabiy til uslublari,sohaga oid atamalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;;*** • Talabalarning og'zaki nutqini adabiy o'zbek tili me'yorlari asosida sifat jihatidan yaxshilash va so'z boyligini oshirish, soha bo'yicha qo'llaniladigan atama va so'zlarni to'liq o'zlashtirish, o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tili me'yorlari, imlo qoidalari, adabiy til uslublari, atamalarning tasnifi va talqini bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega ega bo'lishi kerak.***
4.	**IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari** • amaliy ta'lim; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • munozara; • mustaqil o'rganish • so'rov o'tkazish
5.	**V. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	**VI. Asosiy adabiyotlar:** 1.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025. 2.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2024. 3.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tili".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025. 4.F.Ashurova "O'zbek tilinining sohada qo'llanilishi". O'quv qo'llanma.Toshkent, "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi" MChJ. 2023. 5.M.Sh.Nurutdinova "O'zbek tilini sohada qo'llash".O'quv qo'llanma. Toshkent, nashriyot "Hilol media"-2023. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025. 2. S.Sh.Xolmirzayeva, "Davlat tilida ish yuritish".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025. **Axborot manbalari** **Axborot manbalari**

	qismlar. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari(shartnoma, guvohnoma, nizom-ustav, shtat jadvali). Tashkiliy hujjatlarning turlari. Iqtisodga oid hujjat turlari namunalarini o'rgatish. **12-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari.** Tarjimai hol, ariza, bildirgi, tavsifnoma, tilxat, tushuntirish xati, ishonchnoma, dalolatnoma va boshqa hujjat turlariga namunalar yozish. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Xizmat yozishmalari haqida qisqacha ma'lumot berish. «Atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirish, manzarali o'simliklarni ko'paytirish – bugungi kun dolzarb masalasi» mavzusidagi matn tahlil qilinadi. **II MODUL (O'zbek tilini sohada qo'llash)** **13-mavzu. O'zbek tilining sohaga yo'naltirib o'qitishning maqsadi va vazifasi. Atama va atamashunoslik.** Ushbu fan qishloq xo'jaligining barcha soha va yo'nalishlari bilan chanbarchas bog'liqdir. Bo'lajak mutaxassislar o'z soha tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Atama va atamashunoslikning yuzaga kelishi, har bir fanning o'ziga xos atamalari haqida to'liq ma'lumot beriladi. **14-mavzu. Mutaxassislikga oid so'z va terminlarning kelib chiqishi va shakllanishi. Sohaviy so'z va terminlarning boyib borish manbalari.** Qishloq xo'jaligida iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan sohasiga oid matni tanlab olinadi. Atamalarning ishlatilishi misollar orqali tushuntiriladi. Ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarning iste'molga kirib kelishini misollar orqali ko'rsatish. Matndagi sohasiga oid atamalarga izoh beriladi va misollar orqali tushuntiriladi. **15-mavzu. Terminlarning yasalish yo'llari va ularning xususiyatlari.** Sohaga oid mashqlar asosida mavzu tahlil qilinadi. Matndagi atamalarning yasalishi tahlil qilinadi, terminlarning yasalishini tushuntirish. Terminlarning semantik, morfologik, sintaktik usullari haqida misollar orqali ma'lumot beriladi. Murakkab terminlar, 3, 4 komponentli terminlarning yuzaga kelishi haqida fikr yuritiladi. **16-mavzu. O'zbek tilining jahon tillari o'rtasidagi o'rni. O'zbek yozuvlari tarixi.** O'zbek yozuvlarining piktografik, ideografik, fonografik turlari haqida misollar orqali ma'lumot beriladi. Yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi, yuzaga kelishi hamda Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimiz oromiy, yunon, pahlaviy, hind yozuvlaridan foydalangani haqida eron, grek, xitoy tarixchilarining asarlari haqida ma'lumot beradi. **17-mavzu. Yozuv tamoyillari: fonetik, morfologik, shakliy, tarixiy-an'anaviy.** Mavzu sohaga oid so'z va atamalarga qo'shimchalar qo'shish orqali

ustunlarga bo'lib tushuntiriladi. Sohaga oid birikmalar ishtirokida gaplar tuzilib, ushbu gaplar orqali mavzu to'liq yoritiladi. Tarjimai holni yozish qoidalarini tushuntirish.

18-mavzu.O'zbek tilining imlo qoidalari. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari haqida qisqacha ma'lumot.

O'zbek tilining imlo qoidalari va unig qismlari haqida ma'lumot beriladi. Gapning tarkibiy qismlarini, sodda gapni, gapning bosh bo'laklarini, grammatik asosini, ikkinchi darajali bo'laklarini qiyoslash va qiyoslab o'rganuvchi bo'limi sifatida sintaksis haqida umumiy tushuncha beriladi. Mavzu sohaga oid matnlar singari so'zlar va atamalar orqali bayon qilinadi, mashqlar asosida mavzu tahlil qilinadi.Mavzu sohaga oid matnini tahlil qilish bilan tushuntiriladi. Qo'shib yozish va ajratib yozish imlosining qoidalari misollar orqali o'rgatiladi va mashqlar bajariladi.

19-mavzu. O'zbekiston madaniyati haqida ma'lumot. Kasbga yo'naltirilgan muloqot madaniyati. Adabiy til me'yorlari.

Adabiy til me'yorlari va ularning turlari haqida ma'lumot beriladi. Fonetik va talaffuz me'yorlarining o'ziga xosligi tushuntiriladi. Kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, o'zbek adabiy tilining xususiyatlari amaliy mashqlar orqali mustahkamlanadi. Soha mavzusida kichik guruhlar bilan klaster tuzib, tahlil qilinadi. Imloviy va grammatik me'yorlarning qoidalari misollar orqali tushuntiriladi.Lug'aviy va semantik me'yorlarning o'ziga xosligi matnlar orqali tushuntiriladi. Mavzu yuzasidan matnlar tanlanib, misollar orqali tahlil qilinadi.

20-mavzu. Adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari. Sohaviy til bilimlari. Og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan sohaga oid matnlar va mashqlar orqali bayon qilinadi. Sohaga oid mavzu tanlanadi va insho yoziladi. Adabiy tilning umumxalqiyligi, ko'p vazifaliligi, umummajburiyligi, me'yorlashgan til ekanligi, uslubiy tarmoqlanganligi hamda yozma va og'zaki shaklga ega ekanligi haqida ma'lumot beriladi.

21-mavzu. Nutqning to'g'riligi (notiqlik). Nutqning aniqligi, mantiqiy izchilligi, sofligi, ta'sirchanligi.

Nutqning asosiy xususiyatlari misollar, kichik matnlar orqali tushuntiriladi. O'zbekiston hududida mavjud muammolarga ta'rif berish orqali mavzu mustahkamlanadi. Sohaga oid matnlar orqali nutqning mantiqiy jihatdan to'g'ri, aniq ifoda etilishi tahlil qilinadi.

22-mavzu. Nutq uslublari. Soha (mutaxassislik) tili uslubi. Nutqning uslublarga bo'linishi yuzasidan tushuntirish beriladi. Sohaga oid matnlar asosida suhbat tashkil qilinadi. Sohaga oid mavzuda esse yoziladi va tahlil qilinadi. Publitsistik uslub xususiyatlari yuzasidan tushuntirish beriladi. Kasbiy sohaga oid

matnlar asosida mashqlar bajariladi.

23-mavzu. Davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yuritilishi.

Qishloq xo'jaligi sohasida rasmiy-idoraviy hujjatlar, rasmiy ish qog'ozlari asosida tahlil qilinadi. Soha mavzusida suhbat tashkil etiladi, mavzu yuzasidan insho yoki ijodiy matn yoziladi va sohada uchraydigan atamalar izohlanadi, ilmiy atamalarning qo'llanilishi matnlar orqali tahlil qilinadi. Sohada olib borilayotgan innovatsion ilmiy izlanishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

24-mavzu. Matnda gap bo'laklari. Sodda gap va uning turlari. Matnni qisqartirish va kengaytirish yo'llari. Sodda gap tarkibiga ko'ra: og'zaki va nominal gaplar, aniq-shaxs, noaniq-shaxs, umumlashgan-shaxs va shaxssiz gaplar, to'liq va to'liqsiz gaplar haqida umumiy tushuncha berish. Dunyoning TOP-300 universitetlari dasturiga muvofiq ushbu mavzu sodda to'liq va to'liqsiz gaplar tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga, savol-javob dialoglarini qurish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy, kompetensiyalar ro'yxatini tuzish va uni misollar bilan izohlab berish. Soha terminlari ishtirokida kichik matn tuzish. Matnning asosiy va yordamchi qismlarini farqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi leksik-sintaktik vositalar.

III. Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

IV Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Fan bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar

1. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi.
2. She'r yodlash, kitob mutolaasi.
3. Sohaga oid atamalarning kelib chiqishi va ularning vazifaviy xususiyatlari.
4. O'zlashgan so'zlar ishtirokida matn tuzish.
5. Badiiy asarlardan iboralarga misollar to'plash.
6. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida klaster tuzish.
7. Jadidchilik harakati namoyandalari to'g'risida kichik matn tuzish.
8. O'rmon xo'jaligiga oid atama va so'zlarning kelib chiqishi va ularning vazifaviy xususiyatlari.
9. Adabiy til me'yorlarini sohaga oid misollar orqali tushuntirish.
10. Matnning asosiy va yordamchi qismlarini farqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi leksik-sintaktik vositalar.

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari(shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Talabalar o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til me'yorlari, imlo qoidalari, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xosligi, adabiy til uslublari, atamalarning tasnifi va